



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MONOPOLIYAGA
QARSHI KURASHISH QO‘MITASI**

002348

B U Y R U Q

Toshkent shahri

“ 3 ” oktabr 2022 y.

№ 131-ICH

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamentini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qaroriga muvofiq Qo‘mita tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillarni belgilash, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish, shuningdek, Qo‘mitaga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibini belgilash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish boshqarmasi (Nasirova), Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi bo‘limi (Karabayev) hamda hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Reglament talablariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlasin.

3. Devonxona (Ikramova) mazkur buyruqni Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlarga yuborilishini ta’minlasin.

4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Rais

Sh. Sharaxmetov

O'zbekiston Respublikasi
Monopoliyaga qarshi kurashish
qo'mitasining 2022-yil
3-oktabrdagi 131-ICH-sonli
buyrug'iga
Ilova

**O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasiga aloqa
kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar va manfaatlar to'qnashuvi
to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish
REGLAMENTI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari (keyingi o'rinlarda – Qo'mita tizimi)da korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va tegishli ta'sir choralari ko'rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Qo'mitada mavjud bo'lgan aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar va manfaatlar to'qnashuvi haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro'yxatdan o'tkazish va ko'rib chiqish, shuningdek, Qo'mita rahbariga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ishonch telefoni – Qo'mitaga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, shuningdek, o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

murojaatchi – aloqa kanallari orqali Qo'mita va uning quyi tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs vakillari, xodim;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Qo'mitaning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Qo'mita va uning quyi tizimi xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

taalluqli xabar – Qo'mitada va uning quyi tizimlaridagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar;

xodim – Qo'mita va uning quyi tizimi bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs.

4. Qo'mita korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo'ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfidentsiallik va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Qo'mitaning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo'lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish)ga haqqi yo'q. Agar murojaatchi o'z xabarini yuborganligi haqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o'z xohishiga ko'ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo'lsa, Qo'mita uning oshkor bo'lishiga javobgar bo'lmaydi;

qonuniylik – Qo'mita aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, qayta ishlash va ko'rib chiqish qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta'qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o'z xohishiga ko'ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs vakillari, xususan Qo'mita va uning quyi tizimi xodimi xabarning mazmunidan qat'i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan qayta aloqa – agar xabar anonim bo'lmasa, uni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Qo'mita tomonidan murojaatchiga mumkin qadar yetkazilishi lozim;

ta'sir choralari qo'llashning majburiyigi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Qo'mita aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

5. Quyidagilar aloqa kanallari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

Qo'mitaning rasmiy veb-sayti (antimon.gov.uz) yoki elektron pochta (info@antimon.gov.uz) orqali;

Qo'mitaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari Facebookdagi rasmiy sahifasi (<https://www.facebook.com/AntimonUz>) orqali;

Qo'mitaning telefon raqamlari orqali (ishonch +99871-207-49-00 va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Qo'mitaning telegram boti (@ACRUanticor_bot)

Qo'mitaga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda ko'rsatilmagan va o'ziga qulay bo'lgan boshqa aloqa kanallari.

Dam olish va bayram kunlaridan tashqari Dushanbadan-jumaga qadar 09-00 dan 18.00 gacha aloqa kanallari orqali murojaatga qilishlari mumkin.

6. Qo'mita aloqa kanallari to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o'quv materiallariga kiritadi.

3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taalluqli xabarlarni qabul qilish

7. Qo'mitaning Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – Komplayens xizmati) Qo'mitaning aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlarni ko'rib chiqishga mas'ul hisoblanadi.

8. Qo'mitaning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom va Qo'mitaning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro'yxatga olinadi va rezolyutsiya uchun to'g'ridan-to'g'ri Qo'mita rahbariga chiqariladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;

Qo'mitaning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochta orqali;

Qo'mitaning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Qo'mitaga og'zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

9. Qo'mitaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Komplayens xizmati mas'ul xodimi tayinlanadi.

aniqlashtiradi, xabarni mazkur Reglamentning ilovasiga muvofiq Reyestrda ro'yxatga oladi va ma'lumotni Qo'mita rahbariga kiritadi.

10. Agar murojaatchi o'z xabarini tasdiqlash uchun qo'shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo'lsa, murojaatni qabul qilishga mas'ul xodim ularni taqdim etish bo'yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochta)ni ko'rsatadi va taqdim etiladigan ma'lumotning konfidentialligini bildiradi. Mazkur ma'lumotlar taalluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

11. Qo'mita rahbari taalluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko'rib chiqish uchun Qo'mitaning Komplayens xizmatiga topshiriq tushiradi.

12. Komplayens xizmati taalluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Qo'mitada korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestrda (keyingi o'rinlarda – Reyestr) ro'yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko'rib chiqishi lozim.

13. Ushbu Reglament bilan murojaatchi va xabar beruvchilarga Qo'mita tizimi xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar va manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda (Qo'mitaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari, elektron pochta, telergam bot kanali va h.k orqali) Komplayens xizmati ma'sul xodimi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Qo'mitaga kelib tushgan anonim xabar muallifiga oid ma'lumotlar sir saqlanishi;

anonim xabarda keltirilgan holatlar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda o'rganib chiqilishi;

agar anonim xabarda keltirilgan holatlar bo'yicha Qo'mita tomonidan ko'rilgan choralar to'g'risida ma'lumot berilishi so'ralgan bo'lsa, xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lanish imkoni bo'lmasa bu haqida tegishli hulosa qabul qilishi;

agar murojaatchi yoki xabar beruvchi Qo'mitaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari, elektron pochta yoki telergam bot kanali orqali murojaat yoki xabar qoldirgan bo'lsa u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va.b.).

14. Qo'mita xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

15. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taalluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) agar murojaatlar shikoyat ko'rinishida kelsa Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi bo'limida, anonim yoki xabar berish tartibida bo'lsa Komplayens xizmatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo'lmagan muddatga saqlanishi kerak.

16. Taalluqli xabar Qo'mitaning hududiy va tarkibiy bo'linmalarga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas'ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda hududiy (tarkibiy) bo'linma rahbarini kelib tushgan xabar to'g'risida xabardor qiladi, ular o'z navbatida ushbu xabarni Qo'mitaning Komplayens xizmatiga yuboradi. Komplayens xizmati olingan xabarni 4-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq ko'rib chiqadi.

4-bob. Korrupsiyaviy harakatlar haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish

17. Komplayens xizmatiga kelib tushgan barcha taalluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas'ul xodimlari yoki Qo'mita rahbari topshirig'iga asosan boshqa bo'linmalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

18. Korrupsiyaviy harakatlari to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taalluqli xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.

19. Taalluqli xabar kelib tushganda Komplayens xizmati xodimi dastlabki tekshirish o'tkazib, uning taalluqliligini tahlil qiladi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan ma'lumotning Qo'mita tizimiga taalluqli korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka va (yoki) manfaatlar to'qnashuviga tegishliligini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taalluqli xabar Komplayens xizmatiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

20. Mazkur Reglamentning 18-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'i nazar, bu haqdagi axborot Reyestrda kiritiladi.

21. Agar Komplayens xizmati xodimi xabar taalluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Qo'mitaning tegishli tuzilmasiga bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.

22. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Komplayens xizmati xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

23. Taalluqli xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish Qo'mitaga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, Qo'mitaning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

24. Taalluqli xabar murojaat shaklida kelib tushsa ushbu murojaatga javob Komplayens xizmati tomonidan tayyorlanib, Qo'mita rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

25. Taalluqli xabar murojaat shaklida kelib tushsa ushbu murojaatlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

26. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali murojaat shaklida kelib tushgan taalluqli xabarga javob qonunchilikda belgilangan tartibda yuboriladi, murojaatchining talablariga ko'ra javob yozma yoki elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali qo'shimcha yuborilishi mumkin.

5-bob. Hisobdorlik

27. Reyestr dan Komplayens xizmati xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli Qo'mita xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Qo'mita rahbari foydalanishi mumkin.

28. Reyestr ma'lumotlari asosida Komplayens xizmati har chorakda Qo'mita rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy xarakterli to'g'risidagi xabarlarga taalluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

kelib tushgan taalluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taalluqli xabarlar soni;

korrupsiyaviy harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taalluqli xabarlar soni;

ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taalluqli xabarlar soni;

taalluqli xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;

murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma'lumotlar.

6-bob. Yakuniy qoida

29. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

30. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

